

GENDER TENGSIZLIKNI OLDINI OLIHNING IJTIMOIIY- PSIXOLOGIK TIZIMI



<https://doi.org/10.24412/2181-1784-2026-20-683-685>

Nozimova Adolatxon Maxkamovna

Psixologiya (faoliyat turlari bo'yicha) mutaxassisligi magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada gender tengsizlikni oldini olishda ijtimoiy-psixologik tizimning roli o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi – jamiyatdagi gender stereotiplarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali tenglikni ta'minlash strategiyalarini ishlab chiqishdir. Maqolada ijtimoiy-psixologik yondashuvlar, ta'lim, media va oilaviy muhitdagi omillar tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari gender tengsizlikni kamaytirishga qaratilgan samarali usullarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Gender tengsizlik, ijtimoiy psixologiya, stereotiplar, tenglik, ta'lim, jamiyat.

KIRISH

Gender tengsizlik masalasi XXI asrda global muammo sifatida namoyon bo'lmoqda. Erkak va ayollar o'rtasidagi teng imkoniyatlar yetishmasligi nafaqat iqtisodiy va siyosiy sohalarda, balki ijtimoiy va psixologik jarayonlarda ham seziladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, gender stereotiplari bolalikdan shakllanib, ijtimoiy muhit va ta'lim tizimi orqali mustahkamlanadi. Shu sababli, gender tengsizlikni kamaytirish uchun ijtimoiy-psixologik tizimning samarali ishlashi zarur.

Tadqiqotning asosiy maqsadi – gender tengsizlikni oldini olishda ijtimoiy-psixologik tizimni o'rganish va uning samarali mexanizmlarini aniqlash.

“Gender” tushunchasi “jins” degan ma'noni bildirib bu tushuncha ikki xil talqin qilinadi:

- jins ya'ni biologik tushuncha;
- ijtimoiy tushuncha.

Gender bu – erkaklar va ayollar uchun ijtimoiy jihatdan qo'llaniladigan ta'rif. Ushbu tushunchada ayol va erkaklarning biologik xususiyatlari nazarda tutilmaydi. Aksincha gender tushunchasi negizida jamiyat, jamoat va shaxsiy hayotda ayollar va erkaklarga tegishli vazifalar, funksiyalarning konsepsiyasi yotadi.

Sotsiolog olim E. Giddens ta'rifiga ko'ra, “gender – erkak va ayol o'rtasidagi fizik farqlar emas, balki ayollik va erkaklikning ijtimoiy shakllanishining o'ziga xos hususiyatidir”.

Jins erkaklar va ayollar o'rtasidagi universal biologik bo'lib, anatomik va fiziologik mohiyatni, individning biologik jinsga - erkak yoki ayol jinsiga mansubligini aniqlash uchun asos bo'ladigan biologik belgilar birligidir. Erkaklar va ayollar rollaridagi jiddiy bo'lmagan farqlar ularning biologik xususiyatlariga taalluqlidir. Biroq, erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik farqlardan tashkari o'z tabiatiga ko'ra biologik bo'lmagan sabablarga asoslanuvchi ko'plab farqlar bor.

Ya'ni, ijtimoiy rollar, faoliyat shakllarining bo'linishi, xatti harakat va indvidlarning psixologik xarakteristikalarida farqlar mavjud.

Ta'kidlanganidek, erkaklar va ayollar o'rtasidagi biologik, tabiiy farqlar bilan erkaklar va ayollarning xatti - harakatini, ijtimoiy va madaniy xarakteristikalarini aniqroq farqlash uchun **gender** atamasi qabul qilingan. Gender tushunchasining kiritilishi eng umumiy ma'noda ikki tushuncha - biologik va ijtimoiy jins tushunchalarini farqlashga yordam beradi. Gender (inglizcha gender - jins) jins tushunchasini fiziologik voqelik ustqurmasi bo'lgan ijtimoiy konstruksiya (qurilma) sifatida belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrdagi **“Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”**gi Qonunining 3-moddasiga asosan, gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati, ekanligi belgilab berilgan.

Bir qator tadqiqotchilar tomonidan ijtimoiy rol kutilmalari nazariyasiga asoslanib, ijtimoiy belgilangan me'yorlar asosida genderni jinsiy tafovutlanishini, jins sifatida tarkib topishini; jinsiy rollar va gender sifatlarini shakllanishini; gender tengsizlik va oilada genderga asoslangan kasmitish, zo'ravonlik muammolarini, gender stereotiplarini professional tanlovga, kareraga ta'siri ilmiy tadqiq etilgan[7].

Bir qator tadqiqotchilar, X.X. Abduramanov, S.D.Djaldasova, Z.A.Qodirovalar tomonidan yozilgan “Ayollar mehnat migratsiyasining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari” nomli uslubiy qo'llanmada, mehnat migratsiyasining kelib chiqish sabablari, omillari va oqibatlari, ayollar mehnat migratsiyasini huquqiy tartibga solish amaliyoti va xalqaro mexanizmlari, ayollar mehnat migratsiyasining asosiy oqimlari va zamonaviy yo'nalishlari, ayollar migratsiyasining oila instituti deformatsiyasi va ijtimoiy soha infra tuzilmasiga ta'siri, xorijdan qaytgan ayol mehnat migrantlarini reintegratsiya qilish, migrant ayollarni ijtimoiy himoya qilish, ayollar mehnat migratsiyasini tartibga solishning huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar o'z aksini topganligi qayd etilgan [6].

Shu bilan birga, bugungi kunda ishsizlik, kambag'allik, qarz dorlik, uy-joyga ega bo'lmaslik va muhtojlik, ayollar mehnat migratsiyasining huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy jihatlari sabablar bilan bir qatorda, oiladagi kelishmovchiliklar, ajralishlar, ayollarning o'zi va farzandlarining bilim olishga va rivojlanishga bo'lgan intilishlari kabi ijtimoiy omillarni, ayollar mehnat migratsiyasining rivojlantirish kabi iqtisodiy muammolarni oldini olish, bartaraf etishga qaratilgan qonun xujjatlari ishlab chiqilgan [6].

Asosiy qism. Oliy Majlisi Senatining "2030 yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida"gi SQ-297-IV-son qarori, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda gender tenglikni ta'minlash, xotin- qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish, alohida maqomi va ularga nisbatan hurmatini tiklash, gender tengsizlikni bartaraf etish vazifalari qayd etilgan qonun xujjatlari[1-5] ham gender tengsizlikni bartaraf etishga bag'ishlangan tadqiqot ishimizning dolzarbligini

ko'rsatmoqda. “Gender stereotiplarini shaxsiy semantik farqlash” usulidan foydalanib, er-xotinlarning shaxsiy ongini jinsga tegishlilikni, erkaklik va ayollikni tavsiflovchi sifatlarini, o'ziga xos gender xususiyat determinantlarini, mavjud jinsiy stereotiplarni tartibga soluvchi, ideal va ramziy munosabatlari va gender rollarni baholanishi aniqlandi va shaxsning xulq-atvorini gender tushuncha va tasavvurlari bilan qiyosiy taqqoslandi.

Natijalar

Natijalar ijtimoiy-psixologik tizimning gender tengsizlikni kamaytirishda muhim rol o'ynashini tasdiqlaydi. Ta'lim, media va oilaviy muhitdagi strategiyalar orqali stereotiplarni kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, ijtimoiy siyosat va korporativ tashabbuslar gender tenglikni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki:

- Bolalikda shakllangan gender stereotiplari kattalar hayotida ham davom etadi.
- Psixologik treninglar va ijtimoiy kampaniyalar stereotiplarni kamaytirishga yordam beradi.
- Ta'lim va media resurslarida gender tenglikni targ'ib qilish jamiyatdagi ongni o'zgartiradi.
- Oilaviy muhitdagi tenglik tajribasi bolalarning kelajakdagi gender munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Xulosa

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, faqat qonuniy va iqtisodiy choralar yetarli emas; ijtimoiy-psixologik yondashuv ham muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi ong va xulqni o'zgartirish orqali gender tengsizlikni sezilarli darajada kamaytirish mumkin.

1. Gender tengsizlikni oldini olishda ijtimoiy-psixologik tizimning samarali ishlashi muhimdir.
2. Ta'lim, media va oilaviy muhitda stereotiplarni kamaytirish choralari kuchaytirish zarur.
3. Psixologik treninglar va ijtimoiy kampaniyalar gender tenglikni targ'ib qilishda samarali vosita hisoblanadi.
4. Kelajakda tadqiqotlar gender stereotiplarining regional va madaniy farqlarini aniqlashga qaratilishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs: Prentice Hall.
2. Eagly, A. H., & Wood, W. (2012). *Social Role Theory of Sex Differences*. *Psychology Review*, 19(2), 240–255.
3. Ridgeway, C. L. (2011). *Framed by Gender: How Gender Inequality Persists in the Modern World*. Oxford University Press.
4. UNESCO. (2019). *Gender Equality in Education*. Paris: UNESCO.
5. Khasanova, D. (2020). *Ijtimoiy psixologiya va gender tenglik*. Tashkent: Fan.
6. World Economic Forum. (2021). *Global Gender Gap Report*. Geneva: WEF.